

**KO‘P MA’NOLILIK HODISASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI****Davidov Yunus Jummayevich**

Termiz davlat universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi.

Tel:+998919081828. *E-mail:* [yunusdavidov59@gmail.com](mailto:yunusdavidov59@gmail.com)<https://doi.org/10.5281/zenodo.11530030>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada ko‘pma‘nolilik hodisasi, polisemantik so‘zlarning monosemantik so‘zlardan hamda ma‘no kengayishi va torayishi kabi hodisalardan farqli jihatlari tahlil qilingan.

*Kalit so‘zlar:* polisemiya, monosemiya, leksema, ko‘chma ma‘no, ma‘no kengayishi, ma‘no torayishi.

**SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE PHENOMENON OF MULTISENSATION**

*Abstract.* This article analyzes the phenomenon of ambiguity, the differences between polysemantic words and monosemantic words, as well as phenomena such as expansion and contraction of meaning.

*Key words:* polysemy, monosemy, lexeme, figurative meaning, meaning expansion, meaning narrowing.

**ОСОБЕННОСТИ ФЕНОМЕНА МУЛЬТИСЕНСАЦИИ**

*Аннотация.* В данной статье анализируется явление многозначности, различия между многозначными словами и однозначными словами, а также такие явления, как расширение и сжатие значения.

*Ключевые слова:* полисемия, моносемия, лексема, переносное значение, расширение значения, сужение значения.

Polisemiya har qanday tilda ham salmoqli o‘rin tutadi. Til boyligi faqat so‘zlar, iboralar bilangina emas, so‘zlarning leksik ma‘nolari bilan ham o‘lchanadi.

Demak, so‘zlarning ko‘p ma‘noliligi – polisemiya til boyishida o‘z o‘rniga ega. Polisemiya inson bilimining xarakteri bilan bog‘liq ekan, turli xalqlardagi bilim xarakterining turiligi ham o‘sha xalq tilidagi polisemiyalarda o‘z aksini topadi.

Aniqroq qilib aytganda, polisemiya milliy xarakterga ega bo‘ladi. Leksik ma‘nolarning, tilshunoslikda tan olinganidek, milliy xarakterga ega bo‘lishi polisemantik so‘zlarda o‘z aksini topmasdan iloji ham yo‘q. Chunki polisemantik so‘zlar leksik ma‘nolar hisobigagina tarkib topadi.

[2, B. 7]. Polisemiya bir til doirasida soʻzlarning turli maʼnolari oʻrtasidagi munosabatlarni belgilaydi.

Borliqdagi predmet, hodisalarning oʻzaro mustahkam bogʻliqligini va uning tilda oʻz ifodasini topganini koʻrsatadi. Polisemiya maʼno aniqligini belgilashda matnni hisobga olish lozim. Negaki polisemantik soʻzning anglatayotgan maʼnosi gap tarkibidagi boshqa soʻzlar orqali ochiqilanadi. Soʻzlarning koʻp maʼnoliligi natijasida yuzaga keladigan koʻchma maʼno va ulardagi nozik atfenkalari badiiy adabiyotda muhim tasviriy vosita sifatida keng qoʻllanadi.

Koʻp maʼnolilik hodisasi (polisemiya) qadimdan oʻlimlar diqqatini jalb qilib kelgan. Mirtojiev bu hodisani eramizgacha Xitoy va Hind oʻlimlari, eramizning boshlarida esa Yunonlar ham oʻrganganligini, Ushbu hodisaga ajdodlarimizdan M.Qoshgʻariy, Zamaxshariy, A.Navoiy ham oʻz qarashlarini bayon etganliklarini yozadi (2, b. 3). Soʻzning koʻp maʼnoliligi soʻzlarni oz miqdorda yod olib, nisbatan koʻp miqdorda maʼno ifodalash va bunda fahmlashdan maksimal foydalanish imkoniyatini beradi. Bu boshqa tillarni oʻrganishda ham qulayliklarni yuzaga keltiradi. Koʻp maʼnolilik nutqni obrazli va taʼsirchan qilib ifodalashga xizmat qiladigan til hodisasidir. Koʻp maʼnoli soʻz, leksema til birligidir. Matnda soʻz oʻz maʼnolaridan birini amalga oshiradi. Jamiyat hayotidagi oʻzgarishlar, albatta, tilda oʻz aksini namoyon etadi. Buni lugʻat tarkibimizdagi yangi yasalmalar, yoki keyingi yillardagi oʻzlashma soʻzlar ham yaqqol koʻrsatib turibdi. Jamiyat taraqqiyoti natijasida tilning lugʻat tarkibi qanday oʻzgarib tursa, tildagi soʻzlar semantik jihatdan ham shunday yangilanib, oʻzgarib boradi. Demak, tilda soʻzlar leksik va semantik jihatdan oʻzgarib, yangilanib boradi va oʻsha semantik taraqqiyot natijasida koʻp maʼnolilik hodisasi yuzaga keladi.

Tilda chegaralangan til birliklaridan cheksiz tushuncha va fikr ifodalashga harakat qilinishi tufayli ilgari mavjud boʻlgan soʻzga yangi maʼno yuklanishi natijasida koʻp maʼnoli soʻzlar hosil boʻladi. Ikki va undan ortiq maʼnoda qoʻllanuvchi soʻz koʻp maʼnoli soʻz hisoblansa, tilda faqat bir maʼnoni ifodalaydigan soʻzlar monosemantik (bir maʼnoli) soʻzlar hisoblanadi. Rus tilshunosi L.A.Novikov koʻp maʼnolilikni yuzaga keltiruvchi belgi va uning maʼnosi oʻrtasidagi munosabatining uch tipini eʼtirof etadi. Belgi va uning maʼnosi munosabatining birinchi tipi monosemiya bilan bogʻlanadi... Bunda belgi va uning maʼnosi munosabatida mutanosiblik kuzatiladi. Polisemiya keng yoʻl ochadigan ikkinchi tip a) polisemantik birliklar monosemantik birliklarga yaqin boʻlib, polisemantik birliklararo oraliq kuchsiz va kichikroq boʻladi; b) polisemiya belgi va uning maʼnolari oraliq sezilarli, kuchli boʻladi. Agar birinchi tipda belgi va uning maʼnosi deyarli muvofiqlashsa, ikkinchi tipda ular orasidagi bogʻliqlik erkin boʻladi.

Unda belgi miqdoran ko'proq ma'noviy birliklarga ega bo'lib, ular boshqa sinonim-belgilar qamrovida ham kengroq ifodalana olish imkoniyati ega bo'ladi.

Belgi va uning ma'nosi munosabatdoshligining keyingi tipi bu omonimiya bo'lib, ko'pma'noli birlikning semantik variantlashuvi bilan xarakterlanib, semantik birliklararo bog'lanish barham topadi. Demak, polisemiya ikki chekka qutb monosemiya va omonimiya oralig'idagi lisoniy semantik kategoriyadir (3, b.193).

Darhaqiqat, monosemantik so'zlarda shakl va mazmun mutanosib bo'lsa, ko'pma'noli so'zlarda shakl va mazmun nomutanosibliigi kuzatiladi. Tilga yangi qabul qilingan so'zlar(neologizmlar) dastlab bir ma'no ifodalasa, keyinchalik bir necha ma'no ifodalashi mumkin. Masalan, virus so'zi dastlab faqat tirik hujayralarda ko'payib, odam, o'simlikda yuqumli kasalliklar qo'zg'atuvchi mikroorganizm (4, 1-jild b. 462) ma'nosini anglatgan bo'lsa, keyinchalik kompyuter, telefon kabi texnik vositalardagi dasturlar va ma'lumotlarga zarar beradigan vosita nomini ham anglatyapti, ya'ni ko'pma'nolilik yuzaga keldi. Ko'pma'nolilik til taraqqiyoti mahsulidir. Bu o'rinda shuni qayd etish lozimki, har qanday monosemantik leksemalar polisemantik leksemaga aylanishi mumkin, ya'ni monosemantik leksemalarda ham polisemantiklik imkoniyati mavjud bo'ladi. Bir ma'noli leksema har doim yangi ma'no hosil qilishi mumkin, polisemantik so'zlar esa omonimga aylanib ketishi mumkin. Monosemantik leksemalar taraqqiyoti polisemiyaning yuzaga keltirishi, shuningdek, polisemantik so'zlar taraqqiyoti omonim leksemani yuzaga keltirishi mumkin. Monosemantik leksema – polisemantik leksema – omonim leksema. Polisemiyaning lisoniy mohiyati bir-birini to'liq qoplamaydigan belgi va ma'noning assimetriyasi bilan izohlanib, belgi ham, ma'no ham beqaror holatda bo'lib, asta-sekin va qisman o'zgarib turadi.

Ko'p ma'nolilikning leksik ma'noning kengayishi va torayishi hodisasidan farqi. Tilning tarixiy taraqqiyoti jarayonida lug'at tarkibining o'zgarishi bilan bog'liq ravishda so'z ma'nolari ham o'zgarib boradi. Ba'zi so'zlarda shaklan o'zgarish kuzatilmasa-da, ma'no jihatdan o'zgarib boradi. Bir necha ma'noni anglatgan so'zlar bir bir ma'noda, va aksincha, bir ma'noni anglatgan so'zlar bir necha ma'noda qo'llanishi mumkin, ya'ni so'zlarning ma'nosida torayish va kengayish sodir bo'ladi. Masalan, tariq so'zi o'tmishda umuman don ma'nosini, kiyik so'zi barcha vahshiy hayvonlarning ma'nosini, anglatgan bo'lsa, hozirda tariq donning bir turini, kiyik yovvoyi hayvonning bir turi, ohu ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi.

Ko'p ma'nolilik hamda ma'no kengayishi va torayishi hodisalari bir-biridan farq qiladi. Bu ikki hodisani M.Mirtojiyev quyidagicha izohlaydi: "Ko'p ma'nolilik yuzaga kelishi birdan ortiq leksik ma'noning hosil bo'lishidir. Ma'no kengayishi faqat bir ma'noning ichki o'zgarishidir.

Ya'ni ular boshqa-boshqa til hodisalaridir.

Ma'no kengayishida u anglatgan tushuncha doirasi kengayadi, unda yana bir yangi leksik ma'no hosil bo'lmaydi. Kengayish sodir bo'lgan leksik ma'no ilgari qanday ifoda bergan bo'lsa, keyin ham o'sha ifodani beradi, faqat o'sha leksik ma'no anglatgan referent miqdori yoki hajmi ortadi" (1, b. 168). M.Hakimova Semasiologiya kitobida leksik ma'no o'zgarishining natijasi ikki xil bo'lishini, ya'ni 1) Leksemaning semantik strukturasiidagi ma'nolarning soni ko'payishi polisemiyaga, keyinchalik omonimiyaga olib kelishini; 2) Leksema ma'nosining hajmi o'zgarishini, bunda yangi ma'no hosil bo'lmasdan ma'noning hajmi kengayishi yoki torayishini qayd etadi (5, b. 67). Yuqoridagi mulohazalardan ma'lum bo'ladiki, ko'pma'nolilik va ma'no kengayishi, torayishi hodisalari bir-biridan farq qiladi. Demak, ko'pma'nolilikda bir ma'nodan unga bog'liq bo'lgan boshqa bir ma'no o'sib chiqadi. Masalan, *gul o'sib chiqdi, ma'no o'sib chiqdi*.

Ma'no kengayishi va torayishida yangi ma'no hosil bo'lmasdan anglatayotgan ma'no kengayadi(ko'payadi) yoki torayadi(kamayadi). Masalan, qishloq so'zining "qishda yashaydigan joy" ma'nosini anglatgan bo'lsa, hozirda aholi muqim yashaydigan, shahar bo'lmagan joy tushuniladi.

## REFERENCES

1. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. –Тошкент: “Мумтоз сўз”, 2010.168-бет
2. Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. –Тошкент: “Ўқитувчи”, 1975.3-бет
3. Новиков Л.А. Семантика русского языка. М. 1982, –С. 193.
4. ЎТИЛ. –Тошкент: “O'zbekiston nashryoti” 2020. I том.. 462-б
5. Ҳақимова М. Семасиология. – Тошкент. 2008. 67-бет
6. Davidov Y. J. The Phenomenon of Polysemy and Different Aspects of Conversion //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2021. – Т. 12. – С. 245-247.
7. Davidov Y. J. Badiiy nutqning o'ziga xos xususiyatlari //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 6. – С. 947-952.
8. Davidov Y. J. KO 'P MA 'NOLILIK HODISASINING YUZAGA KELISH YO'LLARI //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. B2. – С. 500-503.
9. Davidov Y. ASPECTS OF DISAMBIGUATION DIFFERENT FROM COGNATE WORDS //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 12. – С. 906-909.